

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING LOYIXASI BO'YICHA

T U S h U N T I R I S h X A T I

Bitiruv malakaviy ishi loyixasining mavzusi:

**Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik
uslubda) loyixalash.**

Bitiruvchi 213 gurux talabasi:



Bekturdiyev I.M.

Kafedra mudiri:



dots.Raxmanov B.S.

Diplom loyixasi raxbari:



katta o'qit. Boydjonov A.Q.

Maslaxatchilar:

1.Arxitektura qismi

2.Konstruktiv qismi

3.Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi

4.Qurilish texnologiyasini

tashkil qilish qismi

5. Iqtisodiyot qismi

6. _____



Boydjonov A.
Raxmanov B.



Gur'yazov G.
Liddigov M.



Tojiev Yu

Urganch - 2018 yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARHITEKTURA» KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINI BAJARISH BO'YICHA
T O P S h I R I Q

Bekturdiyev Izzat Maqaudevich
(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Bitiruv malakaviy ishi loyixasining mavzusi Urganch shaxri
shovot kanali boyida 200 danli restorani
binosini (binoga ashihda) loyixalash.
UrDU bo'yicha 2017 yil «___» _____dagi _____-son buyruq bilan tasdiqlangan.
2. Bitiruv malakaviy ishi loyixasini bajarish uchun ma'lumotlar: Binoni joylashtirish
bo'yicha xolat tarxi M-1:1000, 1:2000.
3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A 4 formatda qo'lyozma tarzida yozilgan matnlar):
- a) Arxitektura qismi bo'yicha: Xolat tarxi, bosh reja, binoning arxitekturaviy-rejalashtirish echimi, arxitekturaviy kompozitsiya, xulosa.
- b) Konstruktiv qism bo'yicha: Binoning konstruktiv uzeli (ayrim olingan bir kismi), devorlar, tom yopma kismi, poydevor kismi, zinapoya, balka, ustun, rigel va xakozalar(xajmi maslaxatchi tomonidan belgilanadi) xisoblanadi va loyixalanadi.
- v) Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi bo'yicha: Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha topshiriq bitiruv malakaviy ishida loyixalanayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab - chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik xolatiga yondoshgan xolda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muximdir:

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha texnik echimlar loyixa xujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyixada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilishning:

a) mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini yaratishga;

v) ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;

s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

d) ishlab – chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish va yong'in paytida odamlarni evakuatsiya qilish masalalarini xal qilish lozimdir.

g) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha: Loyixalanayotgan ob'ektning qurilish-montaj ishlarini tashkil qilish va qurilish ishlarini bajarish texnologiyasini o'z ichiga oladi. Qurilish-montaj ishlarining nomenklaturasi, ish xajmi, mehnat xarajatlari, mashina vaqti sarfi, qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, ishlarni bajarish ketma-ketligi asosida kalendar reja ishlab chiqishdan iborat.

d) Iqtisodiyot qismi: Ob'ektni qurish uchun zarur bo'lgan:

a) ish xaqi xarajatlari;

v) mashina - mexanizmlar xarajatlari;

s) asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalariga qilingan xarajatlarni;

d) uskuna va jixozlarga qilingan xarajatlarni xisoblab, ob'ektning umumiy smeta baxosini va qurilish – montaj ishlari baxosini aniqlashdan iboratdir. Buning natijasida qurilish uchun sarflangan mablag'ning iqtisodiy samaradorligini xisoblash maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi ishlarni «Uzdavarkitekqurilish» tomonidan ishlab chiqilgan va 2005 yildan ishlab chiqarishga joriy qilingan «Qurqiyματος» - 2005 kompyuter dasturi yordamida bajarish xam mumkin.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Adabiyotlar ro'yxati – o'rganilgan chizmalar, tasvirlar, adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar, ilmiy maqolalar, boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la taxlil qilinadi. Ulardan olingan ma'lumotlarni lo'nda qilib ifodalash zarur. Talaba yozayotqanda Internet saydlaridan, o'zi tuzgan manbalar kartotekasidan foydalanadi.

j) Mundarija: Bitiruv malakaviy ishi loyixasining ketma-ketligi ko'rsatiladi unda mumkin qadar ishning bajarilish tartibi aks etishi lozim.

4. Bitiruv malakaviy ishi loyixasining chizmalari (80 x 90sm formatda 4 list doskada yoki maketi bo'lishi kerak):

a) **Arxitektura chizmalari:** Xolat tarxi, shamol guli, bosh reja, binoning qavatlar tarxi, binoning asosiy tarzi, yon tarz, umumiy ko'rinishi (perspektiva), xona inter'eri, qirgimi va qaydnomada xonaning xajmi kv.m. aks etgan bo'lishi kerak.

b) **Konstruktsiya chizmasi:** Vatman qog'ozda konstruktsiya qismi (maslaxatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyixalanadi

v) **Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha:** binoning qurilib bitkazilish muddatini belgilovchi kalendar grafik chizmasi millimetr katak shaklidagi qog'ozda chiziladi.

5. Bitiruv malakaviy ishi loyixasi qismlari bo'yicha maslaxatchilar*:

№	Bitiruv malakaviy ishi loyixasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslaxatchining familiyasi
1	Arxitektura qismi				A. Baiturmatov
2	Konstruktiv qismi				
3	Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi				Burgazov A.
4	Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi				Siddiqov M.
5	Iqtisodiyot qismi				Tojiev Yu.

Izox: * - Bitiruv malakaviy ishi loyixasi raxbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra loyixaga raxbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti xisobidan loyixaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslaxatchilarni taklif etishi mumkin.

6. Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyixasini topshirish sanasi _____

Bitiruv malakaviy ishi loyixasi raxbari _____

(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi _____

(imzo)

Kafedra mudiri _____

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TEXNIKA FAKUL'TETI
"QURILISH VA ARHITEKTURA" KAFEDRASI.
BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASIGA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI RAXBARINING TAQRIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINI BAJARUVCHI

Бекмуродов Мухаммад Махсудович
MAVZU Архитектурный проект нового здания
школы в с. Бекмуродово, Бешкентского района
GURUHI VA YO'NALISHI 213- Архитектура.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining ijobiy tomonlari

Дизайн дан и томондан иш
ва ишловдан боради ушундан холанда
лойиха ишларини янги қўйиш
ишларини қўйишдан. Биринчи ҳафта
қўйишдан ишларини қўйишдан.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining salbiy tomonlari

Биринчи ҳафта қўйишдан архитектура шак-
лидан қўйишдан қўйишдан.

bitiruv malakaviy ishi loyixasini loyixalovchining umumta'lim va texnik saviyasi hamda
ishbilarmonlik qobiliyati:

Дизайндан ишларини қўйишдан қўйишдан
ишларини қўйишдан қўйишдан
ишларини қўйишдан қўйишдан

bitiruv malakaviy ishi loyixasiga « 5 » « 5.0 » baho tavsiya qilindi
diplo raxbari taqrizi

(imzo) (Familiyasi ismi shartli)

« 7 » февраль 2018 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TEXNIKA FAKUL'TETI
"QURILISH VA ARHITEKTURA" KAFEDRASI.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASIGA TAQRIZ

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINI BAJARUVCHI

MAVZU Бектурғиев Узам Максудович
Урганг шаҳри шоват қасаи бўйдо
200 йиллик ресторан баросиши (баросиш ушбу) лойиҳаси.

GURUHI VA YO'NALISHI 213 Архитектура

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINING HAJMI.

CHIZMA VARAQLARINING SONI

TUSHUNTIRISH XATLARI: JAMI

BET.

SHU JUMLADAN: XISOBIY QISM

BET.

SMETA

BET.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining qisqacha mazmuni va echimlari

Битирув малакавий иши тасов даронасига
бинони қуриш ало даронада бажарилган.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining salbiy tomonlari

Лойиҳа ало даронада бажарилган.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining ijobiy tomonlari

Лойиҳа қасоси вил қуришда лойиҳаланган.

kostruktiv echimlar va chizmalar bo'yicha baho

Лойиҳани конструктив ечимлари ва чизмалар
ало даронада бажарилган.

bitiruv malakaviy ishi loyixasini bajaruvchining umumta'lim va texnik saviyasi hamda
ishbilarmonlik qobiliyati:

Лойиҳани бажарувчи ўз соҳаси бўйра таълим ва
техник қуришда ўзини ютқасига бўйра
қасоси вил қуришда.

Bitiruv malakaviy ishi loyixasiga « 5 » « ало » baho tavsiya qilindi
taqrizni tuzdi

Алиш Назаров (inizo) (familiyasi ismi sharifi)
« 6 » феврал 2018 yil

MUNDARIJA

1. KIRISH.	_____BET
2. ARXITEKTURA QISMI	_____BET
3. KONSTRUKTSIYA QISMI	_____BET
4. IQTISODIYOTI QISMI	_____BET
5. KURILISH TEXNOLOGIYASINI TASHKIL ETISH QISMI	_____BET
5. IQTISODIYOTI QISMI	_____BET
6. MEHNAT VA ATROF MUXITNI MUHOFAZASI QISMI	_____BET
7. XULOSA	_____BET
8. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	_____BET

Kirish

Kirish.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va milliy taraqqiyot yo'liga dadil qadamlar bilan kirib borishi shaharsozlikda halq me'morlik merosidan o'rnak olib, mahalliy sharoitlarga moslik, ko'rkam va shinamlilik, jaxon andozalaridan qolishmaslik kabi qator jixatlar e'tibor markazida bo'lishini taqozo etadi. Loyihalanayotgan bitiruv malakaviy ish mavzusi "Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalash"dir.

Jamoat bino va inshootlarining arxitekturasini inson hayotining serqirra tomonlarini, jamiyatning sotsial-ijtimoiy rivojlanish jarayonini badiiy qiyofada yoritib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga jamoat binolari jamiyatning ma'naviy va mafkuraviy dunyoqarashiga ham bir qator bog'liq bo'lib, davlat mafkurasi qanday bo'lsa, zamon arxitekturasini ham shunga javob berishi lozim.

Xalq turmush darajasining oshib borishi esa qurilayotgan yirik shaharlaridagi turistik markazlar, oliy darajada xizmat ko'rsatuvchi mehmonxona majmualari, yirik ilmiy, madaniy va ma'rifiy markazlar, kinoteatr, konsert va ko'rgazma zallari, sport inshootlari, kafe-bar, restoran va boshqa binolarning qurilishi bilan bog'liqdir.[1]

Umumiy ovqatlanish korxonalari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Ovqatlanish korxonalari uchun maxsus mo'ljallangan alohida binolarida (sig'imi 100 va undan ko'p bo'lgan);
- Jamoat va savdo markazlari, bozor komplekslari va vokzallar tarkibida;
- Turar – joy va jamoat binolari tarkibida yoki ularga qo'shib qurilgan, shu jumladan er ostidagi maxsus majmualar tarkibida loyihalashtirilishi mumkin.

Ovqatlanish korxonalari xom ashyoni qayta ishlash va mahsulot tayyorlash bo'yicha to'liq texnologik siklga ega korxonalar yoki mahsulot tayyorlashning so'nggi bosqichini bajarishga ixtisoslashgan korxonalar bo'lishi mumkin. Birinchi korxonalar qatoriga xom ashyoni to'liq qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga va mahsulot tayyorlashning so'nggi bosqichini bajaruvchi boshqa

ovqatlanish korxonalariga xizmat ko'rsatish hamda kulinariya do'konlarini o'z mahsuloti bilan ta'minlashga ixtisoslashgan restoran va oshxonalar kiradi. Ikkinchi korxonalar sirasiga yarim fabrikatlar va tayyorlanishning yuqori darajasiga ega mahsulotlardan taomlar tayyorlaydigan kafe, emakxona, tezkor xizmat ko'rsatish korxonalari kiradi. Umumiy ovqatlanish korxonalarining ko'rilayotgan barcha turlari shakli va xizmat ko'rsatish usullariga ko'ra ikkita asosiy guruhga, ya'ni xo'randalarga xizmat ko'rsatishni ofitsiantlar orqali amalga oshiruvchi va o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish prinsipiga asosan faoliyat yurituvchi korxonalarga bo'linadi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda aksariyat ovqatlanish korxonalari, muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy asoslanishlarga va ichki hajm, inter''erning badiiy-kompozitsion echimlariga, texnik jihozlanishi hamda ishlash rejimiga asoslangan holda, o'zlarining asosiy funksiyalarini hordiq chiqarish va ko'ngilochar funksiyalar bilan birlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

O'rinlar soni 300 tadan ko'p bo'lgan va umumshahar ahamiyatiga ega umumiy ovqatlanish korxonalarni joylashtirish bo'yicha shaharsozlikka oid o'ziga xos jihatlarni, shuningdek aholining mehnat va madaniy-maishiy aloqalarini, xo'randalar kontingenti, jumladan kurort zonalar uchun o'rinlar sonini mavsumiy oshirilishini hisobga olib turib, maxsus dastur-topshiriqlar bo'yicha loyihalashtirish tavsiya etiladi.[4]

Umumiy ovqatlanish muassasalari xalq xo'jaligining eng yirik sohalaridan biri bo'lib, savdo-sotiq va xizmat ko'rsatishda alohida ahamiyatga egadir. SHu bilan birga turmush tarzini muhim qismi bo'lgan holda, minglab ayollarni mashaqqatli mehnatdan ozod qiladi.

Ma'lumki, umumiy ovqatlanish muassasalarida yuqori saviyada tashkil etilgan ish inson mehnatini yuqori darajada tejashga olib keladi va aholiga qulayliklar yaratadi, ko'plab kishilarni esa uy mehnatidan xalos qilishga olib keladi.

Yildan yilga shahar markazlarida bo'sh joylarning tanqisligi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini, bular qatorida umumiy ovqatlanish muassasalarini joylashtirish muammo bo'lib bormoqda. SHuning uchun ham mavjud bo'lgan muassasalardan unumli ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi.

Umumiy ovqatlanish tarmoqlari faqat umumshahar tizimiga xizmat ko'rsatish bilan chegaralanib qolmaydi. Uning rivojlanish chegarasi hududlararo va shahar chekka hududlarini ham qamrab oladi.

Umumiy ovqatlanish muassasalarining arxitekturasida juda ham xilma – xildir. Bular baland mehmonxonalar tarkibiga kiritilgan bloklardan, alohida qurilgan, zamonaviy arxitekturaviy shakldagi ko'rinishga ega bo'lgan, milliylik ruhdagi jozibaga ega bo'lgan ob'ektlar bo'lib, teleminoralarda, ko'prik ostiga hamda turli joylarga qurilgan.

Bunday binolarning bir necha o'nlab yillarga xizmat ko'rsatishini hisobga olsak, ularning arxitekturaviy, fazoviy – hajmiy echimlarining ham mukammal bo'lishiga erishish lozim.

Yirik turdagi umumiy ovqatlanish muassasalari shahar ichki muhitining shakllanishida hozirgi zamonda mavjud bo'lgan an'anaviy tipdagi umumshahar muassasasining tarmog'ini tashkil qiladi

Kundan - kunga rivojlanib borayotgan ilmiy-texnika tarakkiyoti esa, jamoat binolarini arxitekturaviy loyixalashning uslubiy, nazariy va ilmiy asoslarini urganmay turib, badiiy kompozitsiyani tushinmay turib yangi kurilish me'yorlarini bilmay turib loyixalash mumkin emasligini takozo etadi. [3]

Turmush tarzining beqiyos darajada o'zgarib borishi jamoat binolarining yangi-yangi tiplarini yaratishda alohida talablar qo'yadi. Umuman olganda jamoat binolari qurilishining hajmi jixatidan ancha salmoqli o'rinni egalaydi. SHaharsozlikdagi barcha qurilish ishlari QMQ qurilish me'yorlari asosida tashkil qilinib uchta prinsip bo'yicha ya'ni pag'onalik tartibda olib boriladi. Demak deyarlik barcha turdagi muassasalar jamiyatga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar

binosi o'zining qay darajada tez va chaqqon xizmat ko'rsatishiga qarab uch guruhga ajratiladi:

1.Kundalik.

2.Haftada 1-2 marta.

3.har zamonda.

Albatta bu erda barcha turdagi jamoat binolarining funksional jihatdan bog'liqligini hisobga olish kerak. Demak jamoat binolari maxallada, mavze, massiv, tuman va markazlarda har doim piyodalar yo'llari bilan shahar transporti yo'llarini bog'lab turuvchi bo'lib arxitekturaviy dominant vazifasini bajaradi. [6]

Inson yaratgan barcha narsalar, ayniqsa jamoat binolari tevarak atrof bilan uzviy ravishda bog'langan bo'lib, tabiat bilan bir butun yaxlitlikni ifoda etadi. Buning uchun uzoq o'tmishdan boshlab xozirgi zamonda qurilayotgan barcha jamoat binolarini ko'z oldimizga keltirishimiz kerak. Me'morchilik asarlarida ayniqsa uning insonga bo'lgan emotsional ta'siri katta rol o'ynaydi.

O'zining aholiga xizmat ko'rsatishiga qarab, mukammal texnikaviy darajada jihozlanishiga ko'ra, muassasalar oliy, birinchi va ikkinchi darajali xizmat ko'rsatish guruhiga bo'linadi.

Kunduz kunlari restoranlarning aholiga tezlik bilan xizmat ko'rsatishga ko'ra birinchi va ikkinchi darajalik restoranlar xuddi oshxonaga o'xshab o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish usulida ishlashi mumkin. Restoranlarning sig'imi 100, 150, 200, 250, 300, va 500 o'ringa mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Restoranlardagi yuqori darajadagi komfort yaratish uchun inter'erni zamonaviy arxitekturaviy – badiiy echimini, zamonaviy texnika jihatdan ta'minlanganligi hamda eng ilg'or usulda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish hisobiga erishiladi.

Jamoat binolari va uning majmualari sun'iy yaratilgan muxit bo'lib bir yoki bir nechta jarayonlarning o'zaro bog'liq bo'lgan insonning hayotiy faoliyatini o'tkazishga mo'ljallangan. Jamoat bino va inshootlarining eng asosiy omili esa, uning xajmiy rejalashtirilishi asosini insonning hayotiy faoliyati davomida

jamiyatga xizmat qilishiga erishishdan iboratdir. SHuning uchun ham jamoat bino va inshootlarini loyihalashda turli xildagi kompleks omillarni hisobga olish lozim, bular: ijtimoiy, shaharsozlik, tabiiy-iqlimiy, milliy-maishiy, konstruktiv, fizo-texnikaviy, iqtisodiy, arxitekturaviy- badiiydir.

Asosiy faktorni esa uning insonga xizmatidir. Inson turmush tarzining beqiyos darajada o'sib borishi esa, texnik jarayonlarning aktivligi bilan bog'liqligi natijasi ularoq funksional texnologik jarayonlar ham jamoat binolarining yangi-yangi tiplarini yaratishni taqazo etadi. [4]

Davlat ishlab-chikarish kuchlarining betuxtov o'sib borishi, aholini joylashtirish tizimi masalasini ilmiy ravishda hal qilishni, mavjud shaharlarni qayta tiklash va yangi loyihalash, qishlok joylarini esa qaytadan qurishni taqozzo etadi. Ilmiy texnikaviy inqilob jamoatchilik ishlab chiqarishni har tomonlama intensivikasiya qilish, asosiysi esa qimmatbaxo boyliklar yaratuvchi insonga nisbatan yangicha munosabatda bo'lish, axoli turar joy va jamoat binolarini yaxshi tashkil qilish, ularda yashaydigan insonlarni talablariga va didlariga mos keladigan binolar yaratishdek qiyin vazifani qo'yadi. [7]

Arxitektura qismi

Bitiruvchi:



Bekturdiyev I.M.

Mastlaxatchi:



katta o'qituvchi Boydjonov A.Q.

Mas'ul raxbar:



katta o'qituvchi Boydjonov A.Q.

Tanlangan mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslash; Umumiy ovqatlanish muassasalarini ommaga tatbiq qilish va tejamkorlik bilan foydalanish ko‘pincha aholi yashash joylarining xususiyatlaridan turar joylarni qurilishidan, ularni rejalashtirish tarkibidan, yashash joylarining sonidan, xizmat ko‘rsatish kontingentidan, hamda muassasa tiplarini joylashtirishdan, uning hajmidan, xizmat ko‘rsatish uslubidan, sanitariya – gigiena va iqtisodiy faktorlardan tashkil topadi. Umumiy ovqatlanish muassasalari dam olishni tashkil qilishga sharoit yaratib beradi. Bu esa – yagona dam olish, oilaviy xursandchiliklar, do‘stlar bilan uchrashuvlar va boshqalar. Bu erda yana turli tuman hordiq chiqaruvchi (musiqa, raqs, estrada) yuqori saviyada (komfort) xizmat ko‘rsatish, yanada turli tuman va sifatli taomlar assortimenti (uydagiga solishtirganda), sanitariya – gigiena sharoitini hamda oshpazlik mahoratini hisobga olishi kerak. Urganch shaxri Shovot kanali bo‘yida 200 o‘rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalashda binosi o‘zining bionik ko‘rinishi va zamonaviyligi bilan boshqa binolardan ajralib o‘z funksional xususiyatlari bilan hamda xizmat qilish sharoitlari va turli xil millatlar taomlarini mujassam etishi bilan boshqa umumiy ovqatlanish muassasalaridan farqlanishi kerak. SHahrimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning oshishini inobatga olib hamda Respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyurgan aholisi xoxlagan taomiga buyurtma berishi va zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan joyda ovqatlanishini ta‘minlash uchun aynan Urganch shahi SHovot bo‘yida 200 o‘rinli restoran binosini loyihalash bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir.

Loyihaning maqsadi va vazifalarini aniq ifoda etish; Urganch shaxri Shovot kanali bo‘yida 200 o‘rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixasini SHaharning markaziy qismidan o‘tgan SHovot kanali bo‘yiga joylashtirish mo‘ljallangan. Bu kanal bo‘yi bugungi kunda axolining dam olish maskaniga aylanib ulgurdi. Uning tungi vaqtdagi ko‘rinishi o‘ziga xos kompozitsion echimga egadir. Restoran binosi Urganch shahriga mo‘ljallangan 200 o‘rinli restoran

binosini bionik uslubda zamonaviy talablar darajasida loyihalash maxsus binolar sonining oshishiga ham olib keladi. Bitiruv malakaviy ishini Urganch shahar SHovot kanali bo'yida qulay va bo'lgan xududga joylashtirish va mavjud loyiha asosida qad ko'tarishi uchun loyihaviy taklif berishdan iborat.

Loyiha ob'ekti va predmetini aniqlash; Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli (bionik uslubda) restoran binosini qulay tipologik echimga ega bo'lgan, hayotga yangicha raqobatlasha oladigan zamonaviy jixozlar bilan ta'minlab yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlarga va shahar aholisiga qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalash uchun maxsus joy ajratilgan bo'lib ushbu joy tanlab olindi.

Loyiha usuli yoki uslubiyanini tanlash; Loyixalanayotgan Bitiruv malakaviy ishi Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli (bionik uslubda) restoran binosini loyihalash bo'lib u o'z ichiga amaliy tekshiruvlar, taxlil qilish, loyihalash bo'yicha manbalarni o'rganish hamda loyihaviy takliflarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Loyixalanayotgan bino xizmat qilish sharoitlari va turlixil millatlar taomlarini mujassam etishi bilan boshqa umumiy ovqatlanish muassasalaridan farqlanishi kerak. Urganch shahriga tashrif buyuruvchi sayyohlar hamda shahar axolisi xoxlagan taomiga burtma berishi va zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan joyda ovqatlanishi uchun Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida xududi tanlab olindi.

Loyiha jarayonini atroflicha yoritish; Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalashda badiiy-estetik talablar binoning arxitekturaviy kompozitsion tuzilishiga, uning atrof-muhit va tabiiy landshaft bilan uyg'unligiga qo'yiladigan talablar inobatga olingan bo'lib bino kompozitsion jixatdan markaziy simmetrik qilib loyihalangan. Bino yuqoridan qush ko'rinishini eslatadi. Unda ikkala qanotga o'xshab loyihalangan qismida

ovqatlanish zallari va dum qismida tayyorlash va yuklarni tushirish xonalari va asosiy kirish qismi uning tumshug‘i sifatida nomoyon qilingan.

Bino kompozitsion jixatidan ikki qavatdan iborat bo‘lib, ikkinchi qavatida ovqatlanish zali joylashgan, turli xildagi assortimentlar, salatlar va boshqa taomlarni tayyorlash xonalari hamda ovqatlanish xonasi joylashgan. Restoranga kirish qismida zinapoya qavatlarni bir-biri bilan bog‘laydi.

Urganch shaxri Shovot kanali bo‘yida 200 o‘rinli (bionik uslubdagi) restoran binosi urganch shahrining SHovot kanali bo‘yi shimoliy tomoniga ajratilgan bo‘sh joyga loyihalashtirish rejalashtirilgan. Binoning asosiy kirish qismi SHovot kanali tomondan ya‘ni janub tomondan bo‘lib, bino asosan simmetrik ravishda loyihalangan. Binoga asoiy kirish qismi markazdan bo‘lib uning har ikkala tomonida ovqatlanish zallari loyihalangan. Asosiy kirish qismida vestibyl loyihalangan bo‘lib uning bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ng tomonda kassa, chap tomonda nazoratchi xonasi, to‘g‘rida ikkita zinapoya loyihalangan. Zinapoyaning chap tomondagisi ostida va yon tomonlarida xojatxona erkaklar va ayollar uchun aloxida qilib loyihalangan. Zinapoyaning o‘ng tomondagi qismida garderoab loyihalangan. Vestibyuldan chap va o‘ng tomonlarga ovqatlanish zallariga kirish eshiklari loyihalangan. Ikkala zinapoya markaziy qismidan to‘g‘rida ovqat tayyorlash blokiga o‘tish yo‘llari loyihalangan bo‘lib unda chap tomonda menejer xonasi va o‘ng tomonda oshpaz xonasi loyihalangan. Undan to‘g‘ri yo‘lak orqali ovqat pishirish bloki bilan o‘zaro bog‘langan. Ovqat pishirish xonasida markazda ovqat tayyorlash maydonchasi joylashgan bo‘lib uning chap tomonida non maxsulotlari uchun xona va dudlangan taomlar tayyorlash xonasi joylashtirilagn. O‘ng tomonida esa idish yuvish joyi va xamir ovqatlar tayyorlash xonalari joylashgan.

Binoning shimoliy qismida tayyorlash xonalari guruhi joylashgan. U qismiga shimoliy tomondan aloxida kirish eshigi loyihalangan bo‘lib unda yuk tushurish xonasi, chap tomonda sovitgich xonasi, ishchi xodimlar uchun xojatxona,

sabzavot tayyorlash xonasi, qandolat sexi va baliq taomlarini tayyorlash xonalari loyihalangan.

Kirishdan o'ng tomonda esa omborxona, inventar va tara saqlash ombori, oshpazlar kiyinish va dam olish xonasi, go'shtli taomlarni tayyorlash xonalari loyihalangan. Binoga yuk tushirish uchun maxsus mashinalar balandligidagi platformalar tashkil etilgan.

Binoning ikkinchi qavatiga chiqish vestibyuldagi ikkita zinapoyadan amalga oshiriladi. Ikkinchi qavatga ko'tarilishda faye orqali janubiy qismida ma'muriyat xonalari joylashgan bo'lib ularda hisobchi xonasi, afitsiantlar xonasi, haydovchilar xonasi, direktor xonasi va direktor o'rinbosari xonalari joylashtirilgan. Fayening shimoliy qismida ikkita 20 kishilik banket zallari loyihalangan. Har ikkala qismida 40 o'rinli zallar loyihalangan. U zallar tarx echimi bo'yicha o'tmas uchburchak shaklini eslatuvchi echimga ega bo'lib simmetrik xolda loyihalangan. U zallar birinchi va ikkinchi qavatlarda ustma-ust loyihalangan bo'lib oynavand qilib loyihalangan.

Ovqatlanish korxonasi tuzilmasidagi barcha asosiy funksional guruhlar aniq zonalanishi va ishlab chiqarish yo'laklari vositasida qulay funksional o'zaro bog'lanishga (odamlar va yuklar oqimi yo'nalishi bundan istisno) ega bo'lishi kerak.

Bunda quyidagi ishlab chiqarish sikli amalga oshiriladi: yarim fabrikat, xom ashyoni qabul qilish, issiqlik bilan qayta ishlash hamda taomlarni bezash, mahsulotni sotish va xo'randalarga xizmat ko'rsatish.

Bu sikl quyidagi xonalar guruhlari muvofiq keladi:

1.Xo'randalar uchun xonalar:

- garderobli vestibyul;
- qo'l yuvish xonalari, hojatxonalar;
- ovqatlanish zallari;
- bufet;

- uyga olib ketiladigan tushliklar va yarim fabrikatlar sotiladigan xona.

2. *Ishlab chiqarish xonalari:*

- ishlab chiqarish sexlari: issiq taomlar tayyorlash sexi (oshxona); sovuq sex: go'sht va baliq sexlari; qandolat sexi; sabzavot sexi; gumma (somsa) pishirish sexi;
- tayyor taomlar tarqatish uchastkasi;
- idish-tovoq yuvish uchastkalari;
- non kesish xonasi.

3. *Mahsulotlarni qabul qilish va saqlash xonalari:*

- yuklarni tushirib olish xonallari;
- omborxonalar: quruq mahsulotlar ombori; sabzavotlar ombori; inventar va tara saqlanadigan ombor;
- sovitilgan kameralar.

4. *Ma'muriy-maishiy xonalar:*

- idoraviy xonalar;
- direktor va hisobchi xonasi;
- xodimlar xonasi;
- tibbiy xona;
- xodimlar uchun garderoab, dushxonalar va sanitariya bloklari.

Barcha turdagi umumiy ovqatlanish korxonalari binolarining hajmiy-rejali echimlariga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:

- savdo va savdo bilan bog'liq bo'lmagan xonalarning bir-biriga nisbatan oqilona joylashtirish; bu xonalarning o'zaro joylashtirilishi ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlashi, xo'randalar oqimining xodimlar yo'llari, toza va yuvilmagan idish-tovoq, yarim fabrikatlar, xom ashyo va chiqindilarni tashish yo'llari bilavn kesishishini istisno qilishi lozim;
- texnologik zarurat tug'ilgan holatlarda o'zgartirish (transformatsiya)ni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'lishi kerak;

- bir nechta umumiy ovqatlanish korxonalari kompleks korxonaning bitta binosida birlashtirilganida, xizmat ko'rsatish xonalarining umumiy maydonini qisqartirish maqsadida, ulardan birgalikda foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur. [4]

Loyihalangan 200 o'rinli restoran binosi tarx echimida tipologik echimlar mujassam bo'lgan bo'lib xonalarining bir-biri bilan bog'liklik jarayonlari to'g'ri echimini topgan. Undagi tayyorlash xonalari ovqat tayyorlashgacha bo'lgan jarayonlar va tarqatishdan tortib tashrif buyuruvchilarga etkazib berilishigacha bo'lgan jarayonlar talab darajasida loyihalangan. Ikkinchi qavatga xizmat ko'rsatish jarayonlari masofalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi ofitsiant xonalarining kutib o'tirish uchun xonalari ikkinchi qavatda ham joylashishi barcha qulayliklarni o'zida mujassam qilgan.

Uning bosh reja ko'rinishida unga boruvchi alohida yo'l va avtomobillar turish joylari undan tashqari ikkita favvora xam loyixalangan. Binoning atrofi ko'kalamzor qilinib manzarali darahtlat chiroyli gullar ekilishi loyixada ko'zda tutilgan.

Loyiha natijalarini tahlil qilish; Umumiy ovqatlanish muassasalarining arxitekturasining alohida xususiyatga egaligi shundaki, xuddi boshqa jamoat binolari kabi nihoyatda ixtisoslashganligi, estetik va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. SHuning uchun bular shahar ansamblini tashkil qilishda va savdo markazlarini shakllanishida faol ishtirok etadilar.

Uning kompozitsiyasini savdo va yordamchi xonalarining o'zaro uyg'unlashganligi va binoning qavatma-qavat joylashishi ahamiyatga egadir. SHu bilan birga asosiy xonalar va barcha uning tarkibidagi xonalarining o'z o'rniga qarab joylashishi, necha qavatligi rejaning qaysi ko'rinishdaligi albatta muhimdir. Bulardan tashqari xo'randalar guruhining xizmatchilar bilan bir yo'lkada to'qnashib qolmasligi juda katta ahamiyatga ega. Muassasaning hajmiy – rejalashtirish tizimining echimiga shuningdek, qurilishning sharoiti, qavatlarni

to'g'ri tanlash, hajmining bir erga to'planganligi, muassasaning qavati, texnologik jarayonning yuqori darajada qulay tashkil etilishi ham ta'sir etadi.

Bu loyihalanganayotgan 200 o'rinli restoran binosining arxitekturasini, uning shahar qurilishida qaerga joylashganligidan, mehmonxonadami, savdo markazidami, parkdami yoki kurort majmuasida joylashganligidan kelib chiqadi. SHuningdek uning arxitekturasiga milliy an'analar, milliy ruxdagi aholining turli xildagi qatlamiga xizmat ko'rsatishning keng yoyilishi ham ta'sir ko'rsatadi. [2]

Bu loyihalangan 200 o'rinli restoran binosi Urganch shahrining SHovot kanali bo'yiga joylashtirilishi shu atrofda dam olish joylarining tashkil etilganligi suv bo'yida ekanligi va tashrif buyuruvchilar uchun juda qulayligi hamda suv bo'yi yozda salqin bo'lishi inobatga olinib ham ushbu xudud tanlab olingan.

Restoran binosining kompozitsion sxemalari.

Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun quyidagi kompozitsion echimlar mavjud:

- markaziy;
- frontal;
- chuqur (ichkari);
- burchakli.

Xizmat ko'rsatishning **markazlashtirilgan** sxemasida xonalar bino markazida, ovqatlanish zallari esa ular atrofida perimetr bo'ylab joylashtiriladi. Bunday sxema bir nechta ovqatlanish zallariga ega korxonalarda qo'llaniladi.

Frontal sxemaga savdo zallari binoning bo'ylama o'qi bo'yicha, savdo bilan bog'liq bo'lmagan xonalarga parallel tarzda joylashtiriladi.

CHuqur (ichkari) sxemada savdo bilan bog'liq bo'lmagan xonalar savdo xonalari orqasida, binoning ichkarisida joylashtiriladi. Bunday sxema katta bo'lmagan umumiy ovqatlanish korxonalarida qo'llaniladi.

Burchakli sxemada savdo bilan bog'liq bo'lmagan xonalar rejaning burchaklaridan birida joylashtirilib, ovqatlanish zaliga ikki tomondan qo'shiladi.

Bunda ikkita variant qo'llanilishi mumkin: ovqatlanish zali tashqi yoki ichki burchakda joylashtiriladi. [7]

Alohida joylashgan umumiy ovqatlanish muassasalarini loyihalash va qurilish tajribasi shuni ko'rsatadiki, barcha ushbu turdagi binolarning hajmiy – rejalashtirish echimi odatda quyidagicha bo'ladi: markazlashgan, bo'ylamasiga joylashgan, chuqurlikda, zallar tarqoq holda yoki T – shaklida. **Markazlashgan** tarzda rejalashtirilgan chizma odatda rejada kvadrat yoki unga yaqin va doira shaklida bo'lib, xizmat xonalari binoning o'rtasida joylashgan bo'ladi, ovqatlanish xonalari esa ishlab chiqarish xonalari atrofiga joylashgan.

Markaziy tarzda joylashgan shakldagi binolar muassasaga katta iqtisodiy samara keltiradi, bundaylar odatda 200 va undan ko'proq o'rinli bo'ladi.

Urganch shahri SHovot kanalai bo'yiga mo'ljallangan 200 o'rinli restoran binosini loyihalashda bir qator: funksional, badiiy-estetik konstruktiv, sanitar gigiena, yong'inga qarshi, zilzilaga qarshi, iqtisodiy va boshqa talablar qo'yiladi.

Bosh rejada ajratilgan maydon mavjud bo'lib, loyihalanayotgan 200 o'rinli restoran binosining atrofi ko'kalamzor qilinib Xorazm iqlim sharoitida o'sadigan mevali va manzarali daraxtlar bilan obodonlashtiriladi.

200 o'rinli restoran binosi kompozitsiyasini odatda mayda yacheykali, ko'p marta takrorlanuvchi modul tuzilishini aniqlab beradi. Bunda markaziy qism bir turdagi takrorlanuvchan qavatlardan iborat. Binoning hajmiy kompozitsiyasini tanlashda uning sodda yoki murakkab shaklda ekanligiga, ko'ndalang yuza bo'yicha tarqoq yoki balandlik bo'yicha rivojlanib boruvchi, asosiy yoki bir necha tarqoq yo'nalishlardagi o'qlarda tashkillashtirilganligi, binoning kattaligi, maydonning o'lchamlari va tuzilish shakliga, binoning tutgan o'rniga va funksiyasiga bog'liq.

Bir turdagi qavatlar odatda, bir xil rejaviy qurilmaga ega bo'ladi. Bunda u umumiy konstruktiv tizim bo'yama kommunikatsiya tugunlari hamda

ko'ndalang bog'lanishlar tizimi bilan birgalikda loyihalashtirilishi nazarda tutilgan.

Konstruktiv talablar: Umumiy ovqatlanish muassasasi binoning kattaligiga, chiroyli ko'rinishiga qarab, kapital turdagi, aralash tipdagi va engillashtirilgan turlarga bo'linadi. Pishiqligi jihatdan kapital binolar asosan uzoq xizmat ko'rsatuvchi (temirbeton, g'isht, tosh-rakushechnik va hokazolar) dan qurilgan bo'ladi.

Aralash tipi esa – bular qisman uzoq xizmat qiluvchi va qisman engil ashyolardan qurilgan bo'ladi.

Engillashtirilganlari esa, bular vaqtinchalik inshootlar bo'lib, asosan engil ashyolardan (yog'och, metall, plastik va hakoza) qurilishi mumkin.

Harakatchanligi darajasiga qarab, statsionar, yig'ma-buzma va qo'zg'atib turiladigan tiplarga bo'linadi.

Joylashishiga qarab, birlashtirilgan, blokda va alohida qurilgan bo'laklardan iborat.

Birlashtirilgan binolar odatda turar joy yoki jamoat binolarining birinchi qavatiga joylashtiriladi. Blokda qurilgan boshqa binolar turidagi xizmat ko'rsatuvchilar tarkibida bo'ladi. Alohida turuvchi binodalari o'zicha xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bo'ladi.

Har bir muassasa o'zining xizmat ko'rsatish, faslda yoki qurilishning usuliga va alohida xususiyatga ega bo'ladi.

Yil mobaynida ishlovchi muassasalar qurilish usuliga ko'ra, kapital, aralash, harakat darajasiga qarab esa – statsionar va qurilish usuliga qarab blokni birlashtirilgan yoki alohida turuvchi turlarga bo'linadi.

Aralash muassasalar qurilish usuliga qarab kapital, aralash; serharakatligiga qarab statsionar va yig'ma – buzma, joylashish usuliga qarab – birlashtirilgan; blokli va alohida bo'lishi mumkin.

200 o‘rinli restoran binosining konstruksiyasiga va qurilish materiallariga ko‘ra 2 turga bo‘linadi:

- karkas-panelli,
- g‘ishtli.

Karkas-panelli o‘rta qavatli blok seksiyali turar-joy binosida ko‘p qo‘llaniladi. Bunday binolarni loyihalashda erkin va o‘zgaruvchan rejalashtirish imkoniyatlari katta. Ommaviy qurilishda 3x6, 6x6 va 6x9 metr xonalari ishlatiladi.

G‘isht binolar hozirgi paytda eng ko‘p tarqalgan bino turidir. G‘ishtdan qurilgan maishiy xizmat ko‘rsatish binosi qimmat bo‘lsada, iqlim talablariga javob berishi, qurilishda unchalik murakkab texnika vositalarini talab qilmasligi bilan boshqalardan ustundir.

200 o‘rinli restoran binosining qavatlar balandligi poldan polgacha 3 metrga teng. Tashqi yuk ko‘taruvchi g‘isht devor qalinligi - 38 sm, ichki yuk ko‘taruvchi devor qalinligi - 38 sm, oraliq devorlar qalinligi - 25 sm ni parda devorlar esa 12 sm ni tashkil etadi. Tashqi konstruksiyalarning qanchalik issiqlik o‘tkazishini bilish uchun, u albatta hisob-kitob qilinib ularning kerakli qalinliklari topiladi. SHu maqsadda issiqlikni kam o‘tkazadigan materiallar va derazalar sathi kichraytirilib olinadi. [8]

Salqin havo hosil qilish ayniqsa (quyoshga noto‘g‘ri qaratilgan uylar uchun) quyoshga qarshi qurilmalar ishlatiladi: gorizontal qurilmalar janubga qaratilgan binolar uchun, vertikal qurilmalar sharq va g‘arb tomonga qaratilgan binolar uchun hamda har xil boshqa aralash qurilmalar (markizlar, shtorlar, jalyuzlar, va undan tashqari o‘simliklar,) daraxtlar va yopilib o‘sadigan o‘tlar ishlatiladi. Quyoshga qarshi qurilmalar nafaqat havoni salqinlashtiribgina qolmay binoning chiroyli ko‘rinishiga ham yordam beradi. Ular binolarning tarzini (fasadini) boyitishga va shinam bo‘lishiga katta yordam beradi. YUqorida aytib o‘tilgan qurilmalar O‘zbekiston sharoitida salqinlik yaratadigan tabiiy jihozlar hisoblanaladi. SHular bilan bir qatorda sun‘iy jihozlar sovutgichlar

(konditsionerlar) ham havoni salqinlatishga xizmat qiladi. Lekin ularni ishlatish faqat tabiiy havoni salqinlatish usullariga yordamchi bo‘lib xizmat qiladi. SHuning uchun O‘zbekiston sharoitida sun’iy usullar ishlatiladimi yoki yo‘qmi uylarni loyihalashda asosan tabiiy salqinlatish usullari, qonun qoidalarini qo‘llanilishi shart. [4]

Loyihalanayotgan 200 o‘rinli restoran binosida simmetrik xolda loyihalangan ovqatlanish zallarining oynalari quyoshdan saqlanish uchun yo‘dlangan shisha oynalardan foydalanilishi rejalashtirilgan. Xorazm iqlim sharoitida yozda issiq va qishi sovuq bo‘lishi inobatga olinib barcha chora tadbirlar hisob-kitob qilinishi rejalashtirilgan. Bino ichida konditsioner o‘rnatilishi ham rejalashtirilgan. Bino suv bo‘yida joylashganligi u erdagi iqlim sharoiti inobatga olingan. CHunki u xududda namlik yuqoriligi yozda salqish xavo harorati mavjudligi derazalarni ochib qo‘yish imkonini ham beradi. Qishda Xorazmda juda sovuq bo‘lishi inobatga olinib shishlarni o‘rnatilishida ikki qatlamli qilib loyiha rejasiga kiritish rejalashtirilgan bo‘lib, ichki katellar orqali isitish tizimi orqali qizdirish amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Umumiy ovqatlanish korxona binolarining hajmiy-rejali va **konstruktiv ehimlari** xo‘randalarga xizmat ko‘rsatishning turli shakllarini (o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish va ofitsiantlar yordamida xizmat ko‘rsatish va hk.) tashkil qilish va taom tayyorlashning so‘nggi bosqichiga ixtisoslashgan ovqatlanish korxonalariga yarim fabrikatlar va sovitilgan tayyor mahsulotlarni markazlashgan va kompleks tarzda etkazib berish bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlarini ta‘minlashi lozim. Bunda tayyor va yarim fabrikat mahsulotlarni yuklash-tushirish va shu kabi murakkab ishlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish maqsimal darajada bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratish zarur. Umumiy ovqatlanish korxonalarining texnik jixozlanishi yuqori samaradorlikka ega zamonaviy texnologik uskunalar, ya‘ni xorijiy va mahalliy modulli uskunalar, funksional hajmlar, ko‘chma stellajlar va yarim fabrikatlar hamda tayyor mahsulotlarni

etkazib berish uchun kanteynerlar va shu kabilarni loyihalarda keng joriy etishiga asoslanish kerak.

Konstruktiv echim qurilish amalga oshiriladigan muayyan hududdagi mavjud industrial baza va qurilish materiallar turlari hamda zaxirasiga, loyihalashtirilayotgan ob'ektning turi, vazifasi, qavatlar soni va joylashtirilishi (alohida joylashtirilishi yoki mavjud turar-joy va jamoat binolari tarkibida yoki ularga qo'shib qurilishi)ga asoslangan holda tanlanadi. Ovqatlanish korxonalarining binolarini loyihalashtirish turli konstruktiv tizimlar va materiallarga (to'liq yig'iladigan temir-beton tizimlar, karkas-panelli va yirik panelli konstruksiyalar, monolit temir-beton, g'isht, mahalliy qurilish materiallari, engil metall konstruksiyalar, shu jumladan katta oraliqli konstruksiyalar, ko'p qatlamli fasad panellari qo'llanilgan elimlangan yog'och konstruksiyalar, shisha tuzilishidagi, aralash konstruktiv tizimlar va materiallar) asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin. [8]

Loyihalangan 200 o'rinli restorat binosida aralash konstruksiya qo'llanilgan bo'lib unda karkas tizimi, monolit orayopma va tomyopma konstruksiyalar, g'isht konstruksiya va oynavand shisha konstruksiyada ustunli karkas tizimli konstruksiyalar qo'llanilgan.

Zichlanmagan xolatdagi beton korishmasining tarkibida ko'p xavo bo'ladi. Qattiq qorishma tarkibida 40-45%, plastik qorishmalar tarkibida 10-15% xavo bo'ladi. Beton korishmasi zichlanganda u chiqarib yuborilgan xavolar xisobiga o'tiradi, kirishadi va natijada og'irlashadi. Titratgich ta'sirida beton korishmasi zarralari majburiy tebranadi va erkinlashadi. Erkin zarralar og'irlik kuchi ta'sirida chuqadi va qolipni egallaydi.

Titratgichlar, beton korishmasiga ta'sir ko'rsatish usuliga qarab quyidagilarga bo'linadi:

- ichki - beton qorishmasi ichiga tushirilishi bilan ishchi organi ko'rpusi orqali qorishmaga tebranish beradi. Tebranish kuchidan deyarli to'la foydalaniladi;
- tashqi - qoliplarga tashqi tomondan boltlar yoki boshqa biriktiruvchi elementlar bilan mustaxkamlangan bo'ladi;
- sirt bo'yicha ishlovchi – to'shalgan beton yuzasi bo'yicha tebranish berib zichlaydi.

Qurilishda ichdan tebranish beruvchi titratgichlar keng ishlatiladi. Beton qorishmasining zichlanib bo'linganligi xaqidagi xulosani o'z vaqtida chiqarilishi juda muximdir. Titratgich bir joyda uzoq tutib turilsa beton qorishmasi qatlamlarga bo'linishi mumkin, aks xolda to'la zichlanmay ichida xavo qolishi mumkin. Malakali betonchilar titratgichning tovushidan beton qorishmalarining zichlangan yoki zichlanmaganligini bilishadi. Titratgich beton qorishmasi ichiga tushirilgach ovoz yuqoladi va bir ozdan so'ng yana ovoz paydo bo'ladi va uning quvvati bir xil turadi. Shunda titratgichni beton tanasidan chiqarib olish talab etiladi.

Bundan tashqari beton korishmasining etarli darajada zichlanganligini bildiruvchi qator belgilar mavjud. Bular: beton qorishmasining cho'kmasligi, sirtida sement-suv aralashmasining chiqishi, sirtida xavo pufakchalarining chiqishini to'xtatishi va x.k.

Titratgich ishchi organining beton korishmasi ichiga ketma-ket tushirish joylari orasidagi masofa $1,5 R$ (R -titratgich ta'sir radiusi)ga teng bo'lishi kerak.

Betonlash ishlarini olib borishda tanaffuslar bo'lishi mumkin. Bunda eski va toza to'shalgan beton orasida tekislik (chok) xosil bo'ladi. Buni betonlashdagi ishchi choklar deb atashadi. Bu choklar konstruktsiya mustaxkamligiga ta'sir etmaydigan joylarda tashkil etiladi.

Ustunlarni ko'rishda ishchi choklar poydevor tepa sirti satxida yoki xari, to'sinlarning osti satxida bo'lishi mumkin.

Ish choki aniq ko'ndalang yoki bo'ylama bo'lishi kerak. To'sinlar yoki plitalar betonlanganda choklar bo'ylama xolatda bo'lishi zarur.

Ustunlar betonlanganda choklar ko'ndalang xolatda bo'lishi kerak. Beton qotish davrida parvarish qilinishi lozim. Beton qotishining boshlang'ich davrida unga qilingan parvarish quyidagilarni ta'minlashi zarur:

beton mustaxkamligining zarur sur'atlarda egallanishini ta'minlovchi xarorat namlik xolati;

xarorat – cho'kish deformatsiyasining borishi va yoriqlar xosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

qotayotgan betonni kutilmagan zarbalardan va boshqa ta'sirlardan asrash;

Issiq va quruq iqlim sharoiti, qish faslidagi sovuqliklar betonning me'yoriy qotishi uchun noqulay iqlim sharoiti bo'lib xisoblanadi.

Issiq va quruq iqlim sharoitida toza to'shalgan beton qorishmasining suvsizlanishi va dastlabki plastik cho'kishi natijasida beton tanasida yoriqlar xosil bo'lishining oldini olish zarur bo'ladi. Shu maqsadlarda beton sirtiga suv o'tkazmaydigan polietilen plyonkasi yopiladi. Beton ma'lum darajaga qotgach, uning ustiga shol-plenka (meshkovina) to'shash, yog'och chiqindisi (apilka) sepish va ularni namlab turish tavsiya etiladi (namli parvarish).

Issiq kunlarda beton qorishmasi o'z plastikligini yo'qotadi. Bu xollarda unga S / T_s nisbatni o'zgartirmay bir oz suv qo'shish lozim. Beton tarkibiga plastifikatorlarni qo'shib plastik beton korishmasi olish xam mumkin.

Qishda beton va temir-beton ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, bunda beton muzlaganiga qadar xisoblangan mustaxkamlikning 50% ga ega bo'lsin. Shundagina bundan keyingi muzlash beton mustaxkamligiga ta'sir qilmaydi.

Umuman betonning qotishi uchun me'yoriy xisoblangan 18-22 S li xarorat 4 S gacha pasaysa uning qotish muddati ikki barobar chuziladi, xarorat 0 S dan pastga tushganda esa betonning qotishi to'xtaydi-u muzlab qoladi. Beton muzalaganda uning tarkibidagi suv xam muzlab o'z xajmini 9% ga oshiradi. Bu o'z vaqtida beton tanasida ichki kengayish kuchlanishlarini xosil qiladi. Beton erishgan mustaxkamlik bu kuchlanishlarga bardosh berolmasa, u titilib ketadi.

Qish vaqtida betonlashni 2 asosiy guruxga bo'lish mumkin:

konstruktsiyalar ichida betonni o'z xolida, isitmasdan saqlash va sun'iy ravishda isitib qotishini tezlashtirish. Betonni sun'iy usulda isitish usuli nafaqat qish davrida betonlash ishlarini olib borishni ta'minlaydi, balki mustaxkamlikni egallash suratlarini xam oshiradi.

Betonni isitmasdan saqlash usuliga «termos» usuli va uning xar ko'rinishlari, muzlashga qarshi qo'shimchalarni qo'llash va beton qorishmasini oldindan yuqori xaroratgacha isitib qoliplash kabi yondoshishlarni aytish mumkin.

Sun'iy isitish bilan betonlash usullari sifatida elektr toki energiyasi xisobiga isitish (elektroprogrev, elektroobogrev, greyushie opolubki), issiq bug' bilan isitish, issiq xavo bilan isitish, infraqizil nurlar bilan isitish kabilarni aytish mumkin.

Yuqorida keltirilgan qishki betonlash usullaridan biri qurilish tashkiloti imkoniyatlaridan, ob'ektdagi shart-sharoitdan kelib chiqib tanlanadi.

Qolip betondan texnikaviy shartlarga muvofiq ajratib olinadi. Beton etarli darajada qotgandan keyin qolip ajratib olinadi. Beton konstruktsiyalarga yondosh qolip (yon tomon-yuk tushmaydigan qolip) beton xosil qilingan shaklni yo'qotmaydigan darajagacha qotganda (loyixaviy markasining 25% mustaxkamligini olganda), uni ko'tarib turuvchi bo'laklari esa beton 70% dan ortiq mustaxkamlikka erishgach echib olinadi.

Beton va temir-beton ishlari sifatini nazorat qilish quyidagilarda namoyon bo'ladi:

armatura, beton uchun materiallarning sifati, saqlanish sharoitlari;

beton qoruvchi jixozlar, dozator-o'lchash asboblarning sozligi;

beton qorishmasining tayyorlanish, tashish va to'shash paytidagi sifati;

betonni parvarish qilish usulining to'g'ri tanlanganligi, qolipni echish muddatlarini nazorat qilish;

Bunday nazoratni olib borish uchun ishlab chiqarish ustidan doimiy nazoratni tashkil etish lozim.

Beton sifati tekshirilganda uning xaqiqiy mustaxkamligi, muzlashga chidamliligi, suv o'tkazmaslik ko'rsatgichi aniqlanadi va tegishli xulosalar qilinadi.

Mehnat va atrof muhit muhofazasi qismi

Bitiruvchi:



Bekturdiyev I.M.

Mastlaxatchi:



dots. Quryazov Q.A.

Mas'ul raxbar:



katta o'qituvchi Boydjonov A.Q.

TOPSHIRIQ

Bitiruv malaka ishi mavzusi: “Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalash” bo'lib, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha topshiriq loyixalanayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab – chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik xolatiga yondoshgan xolda beriladi.

Bitiruv malakaviy ishining mehnatni muhofaza qilish bo'limini bajarishda quyidagilarga ehtibor qaratish muximdir:

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha texnik yechimlar loyixa xujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyixada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilishning quyidagi qoidalariga rioya qilish lozimdir:

1.Mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini yaratishga;

2.Ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;

3.Xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

Qurilish maydonchasida havfsizlikni tashkil etish qoidalariga alohida e'tibor berish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining mehnatni muhofaza qilish bo'limining so'ngida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.


Kirish

: “Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalash” bitiruv malakaviy ishi Urganch shahri Shovot kanali bo'yining shimoliy tomoniga mo'ljallanganligi uchun ushbu hudud suv bo'yiga yaqin joylashgani sababli qurilish maydonini vaqtinchalik devor bilan o'rab olinadi va unga kirish va chiqish darvozalari o'rnatiladi.

Qurilish maydonchasida havfsizlikni tashkil etish bo'yicha bir qator me'yoriy qoidalar asosida ishlar ketma-ketligiga bo'y sungan xolda mehnatni muhofaza qilish ishlariga rioya qilishimiz lozim.

Ish boshlashdan oldin aholi yashaydigan punktlarda joylashgan qurilish maydonchalari devor bilan ihotalab qo'yilishi kerak. Aholi yashaydigan joylarda qurilish maydonchasini sim bilan to'sib qo'yish mumkin.

Devorning joylashuvi va konstruksiyasi qurilishni tashkil qilish loyhasiga muvofiq tanlanadi. Yo'l va yo'laklardan 8...10 m. Narida qurilayotgan ob'ektning atrofi devor bilan o'ralishi, bu devor yoniga taxta qoqib qo'yilgan himoya qoziryog'i o'rnatilishi kerak. Qoziryok 20^0 burchak ostida o'rnatiladi. (1-rasm).



1-rasm. Qurilayotgan bino atrofidagi devor va qoziryokning konstruksiyasi: 1-nishab koziryok, 2-shitlardan ishlangan to'siq paneli, 3-trotuar paneli.

Qurilish boshlanishidan oldin qurilish maydonchasiga mashinalar yuradigan yo'llar, ob'ektlarni bir-biriga bog'laydigan yo'lakchalar quriladi. Bu yo'llar

transport vositalarining kerakli joyga oson yaqinlashuvini, materiallar, detallar, konstruktsiyalarni qiynalmasdan keltirishni ta'minlaydi.


Harakat havfsizligini ta'minlash va yuklarni tezroq tushirib olish uchun aylana yoki to'g'ri yo'llar quriladi va bu yo'llarning yuk tushiriladigan joylari maxsus kengaytiriladi. Yo'llarning mashinalar o'tadigan qismining kengligi 3,5 m. (transport bir yo'nalishda harakatlanganda yoki transport ikki yo'nalishda harakatlanganda) 6 m. bo'lishi kerak. Avtomobillar harakatlanadigan yo'llarda burilish joylarining radiusi 12 m. bo'lishi lozim. Yo'llarga yo'l belgilari va ko'rsatkichlari o'rnatiladi, ishchilar o'tishi uchun havfsiz yo'laklar quriladi.

Quduq va shurflar mustahkam shitlar bilan yaxshilab qo'yilishi, transheya hamda qatlovanlar esa kunduzi va tunda yaxshi ko'rinib turadigan, balandligi 1 m. li to'siqlar bilan ihotalab qo'yilishi zarur. Qurilish maydonchasi hududining yoritilishi kamida 2 lk, kran va takelaj ishlari bajariladigan joylarniki kamida 10 lk, g'isht teriladigan va beton quyish ishlari bajariladigan joylarniki esa kamida 25 lk bo'lishi kerak. Ko'chma yoritish qurilmalari tarmoqqa GRSHS, KRPT, PRG tipidagi shlangli kabellar bilan ulanishi va yerga ulab qo'yilishi lozim. Qurilish maydonchasidagi muvaqqat elektr prodkalar izolyatsiyalangan simdan qilinib, yo'laklarga 3m va mashinalar o'tadigan yo'llarga 5 m balandlikda osib qo'yiladi. Transport intensiv harakatlanadigan va strelkali mashinalar ishlaydigan joylarda elektr uzatish liniyalari bo'lmasligi kerak. Elektr energiyasi transformatorli podstantsiyalar (kiosklar) dan yoki taqsimlovchi kuch qurilmalari orqali olinadi.

Qurilish ishlari havfsiz zonada (loyihada ko'rsatiladi) zarur sanitariya-maishiy xonalar qurishdan boshlanadi. Buning uchun, odatda, 420-01, 420-04 seriyadagi ko'chma konteyner vagonlardan foydalaniladi.

Balandda ishlayotganda yuzaga keladigan hamma havfli zonalar, montaj ishlari bajariladigan, yuk ko'tarish kranlari: yer qazish mashinalari ishlaydigan, bino va inshootlar buziladigan yoki qismlarga ajratiladigan, portlatish ishlari olib boriladigan joylar qo'shimcha ravishda balandligi 1 m li inventar to'siqlar hamda

qizil rangga bo'yalgan ikki qator reykalarni bilan ihotalab qo'yilishi zarur. Montaj zonasidagi to'siqqa va kran harakatlanadigan yo'lga bu zonaga kirishni ta'qiqlaydigan ogohlantiruvchi yozuvlar osib qo'yiladi. To'sib qo'yilishi zarur bo'lgan zonaning kattaligi quyidagi formuladan aniqlanadi: (2-rasm).




2-rasm. Qurilayotgan ob'ekt atrofidagi havfli zona chegarasi.

$P=0,3 H$ (ammo 2 m dan kam emas). Bu yerda P - havfli zona masofasi, H - ish o'rnining balandligi.

Konstruktsiyalarni montaj qilish uchun kran binoning mashinalar harakatlanadigan yo'lga qarama-qarshi tomondan o'rnatiladi. Agar qurilish davomida proyomlar (ochiq joylar) paydo bo'lsa, ular to'siqlar bilan berkilib qo'yiladi. Montaj zonasi to'siqlarining holati muntazam tekshirib turiladi. Agar ular buzilsa, darxol tiklanadi.

Kran ishlaydigan (umumiy) zonaga kranni ishga tushirish rubilnigi, yuk ko'tarish imkoniyatini cheklagich (OGP) ni har kuni tekshirib turish uchun nazorat yuk, kran harakatlanadigan yo'l oxirlariga tiraklar va oxirgi viklyuchatellar liniyalari o'rnatiladi.

Konstruktsiya va materiallar saqlanadigan zonalar avtotransport kiradigan va chiqib ketadigan tomonlardan ko'rsatuvchi hamda ta'qiqlovchi belgilar osilib shlagbaumlar bilan to'sib qo'yilishi lozim. Element va konstruktsiyalar saqlanadigan maydoncha ishlarini bajarish loyihasiga muvofiq quriladi hamda panellar, ichki devorlar va pardevorlarni taxlash uchun kasseta va piramidalar bilan ta'minlanadi. Orayopmaning katta o'lchamli panellarini bo'ylama holatdan ko'ndalang holatga havfsiz o'tkazish uchun qurilish maydonchasiga kantovatel o'rnatiladi. Qolgan buyumlar havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda taxlab qo'yiladi. Har qaysi taxlam yonida buyumlarning markalari va tip o'lchamlari ko'rsatilgan taxtacha (tablichka) bo'lishi kerak. Buyumlar omborlarda loyihada ko'satilgan miqdorda saqlanadi. (3-rasm). Gipsdan ishlangan prokat buyumlar va shunga o'xshash boshqa buyumlar suv tegmaydigan joylarda saqlanishi lozim.



**3-rasm. Konstruktsiyalarni qurilish maydonida taxlash:
1-kolonnalar, 2-rigellar, 3-devorbop panellar, 4-orayopma plitalari.**

Urganch shahar Shovot kanali bo'yi xududida restoran binosini loyihalashda asosan qurilish konstruktsiyalaridan g'ovakli va ustunli konstruktsiyalar ko'p qo'llanilganligi sababli ularni qurilish maydoniga vaqti vaqti bilan olib kelib talab darajasida saqlash qoidalariga rioya qilish lozim.

Yo'llar bilan kesishish joylaridagi barcha kommunikatsiyalar (truboprovodlar) transport vositalar gabaritidan ko'tarilgan, yo'lning mashinalar yuradigan qismi tagidan o'tkazilgan bo'lishi va ular ustidan ishonchli proezdlar qurilgan bo'lishi zarur.

Qishda yo'llar, yo'laklar, materiallar saqlanadigan zonalarini muntazam ravishda qurilish ahlati, qor va muzdan tozalab turish, shuningdek, ularga qum sepib turish lozim.

Montaj boshlanishidan oldin qurilish maydonchasiga loyiha hujjatlarida ko'zda tutilgan montaj, yuk ko'tarish va yuk qamrash moslamalari, inventar: hamda asboblarni keltirib qo'yilgan bo'lishi zarur.

Qurilish territoriyasida zararli gazlar to'planadigan chuqurlar, quduqlar, kotlavanlar bo'lishi mumkin. Shu sababli gaz borligini aniqlash priborlari va gaz to'planadigan joylarda ishlash uchun inventar ventilyatorlar, kislorodli izolyatsiyalovchi apparatlar hamda shlangli protivogazlar bo'lishi kerak.

Qurilish maydonchasida shikastlanishning oldini olishning eng muhim tadbirlaridan biri havfsizlik texnikasini targ'ib qilishdir. Qurilishning turli joylariga, ish o'rinlariga bajariladigan ishlarga tegishli havfsizlik texnikasiga oid plakatlar yopishtirilgan shitlar o'rnatiladi. Havfli joylarda taqiqlovchi ("Kirish mumkin emas", "Chekilmasin"); ogohlantiruvchi ("Avtotransport", "Yuk ostida turma", "Predmetlar tushib ketishi mumkin", "Portlaydi"); buyuruvchi ("Kaska(mahsus bosh kiyim)da ishlang!", "Belbog' bilan ishlang!", "Ko'zoynakda ishlang!"); ko'rsatuvchi ("Medpunkt", "Chekish joyi", "Xojatxona") (va boshqa havfsizlik belgilari osib qo'yiladi).

Hamma ishchilar norma asosida tegishli korjoma, maxsus poyabzal, yengliklar, qo'لقoplar, himoya ko'zoynaklari (O'rta Osiyo sharoitida "Vosxod" tipidagi ko'zoynak), kaskalar, saqlash belbog'lari va boshqa individual himoya vositalari berilishi zarur.

Loyihalanayotgan «Urganch tumani kiyim-kechak bozori xududida savdo markazini va xudud landshaft yechimini loyihalash» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida mehnatni muhofaza qilish bo'yicha barcha talablar inobatga olingan xolda batafsil bayon qilingan.

Bitiruv malaka ishi mavzusi: Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli restoran binosini (bionik uslubda) loyixalash jarayonida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy masalalarni yechib qolmay, ushbu ob'ekt qurilayotgan joydagi axoli maskanini ekologik muvozanatiga xam ehtibor berish zarur.

Buning uchun avvalo ob'ekt quriladigan xududning asosiy xususiyatlarini o'rganish kerak. Chunki ob'ekt qurilib ishga tushgandan keyin chiqindilarni bezararligini ta'minlash nixoyatda muximdir.

Xozirgi davrda xech bir texnologik jarayon umuman chiqindisiz ishlamaydi. Bu chiqindilar ma'lum miqdorda suv xavzalarini, atrof – muxitni ifloslantiradi. Albatta xozirgi zamon texnologik jarayonlarida ifloslangan suvni tozalash vositalari mavjud. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bu suv tozalash qurilmalari ma'lum kamchiliklardan xoli emas, ya'ni qurilmaning aksariyati ma'lum miqdorda yig'ilgan suvni tozalaydi. Shuning uchun biror tabiiy ofat natijasida, masalan, suv toshqini, jala yog'ishi natijasida ifloslangan va xali tozalanmagan suvni suv xavzalariga oqib kelib tushishi natijasida zaxarlanish va eng yomoni inson salomatligiga xavf soladigan xolat vujudga kelishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ob'ektlarni qurishda yuqoridagilarni xisobga olgan xolda ish olib borish xar bir mutaxassisning burchidir. Bu ishga sovuqqonlik bilan qarash butun tabiatga, ekologik muvozanatga shu bilan birga

axoli maskanlarining umumiy sog'lomligiga va bu bilan butun avlodlar oldidagi javobgarlikni unutmaslik lozimdir.

O'zbekiston Respublikasida mexnatni muxofaza qilishning xuquqiy, texnik va sanitariya – gigiena qoidalarini bilan belgilab qo'yilgan qonunlari qabul qilingan. Bu qoidalar umumjaxon talablari darajasida ishlab chiqilgan.

1.Ob'ektda mexnatni muxofaza qilish bo'yicha shamollatish tizimi.

Inson xayotida xavoning ahamiyati katta bo'lib, uning ximiyaviy tarkibi, fizik xususiyatlari inson salomatligini saqlovchi muxim omildir. Xavo xolati uning bosimi, zichligi, xarorati, absolyut va nisbiy namligi bilan belgilanadi. Loyixalanayotgan ob'ektda sun'iy va tabiiy shamollatish tizimidan foydalanish ko'zda tutilgan. Shamollatish qurilmalarining texnologik ko'rsatkichlari BMI ning oldingi bo'limlarida keltirilgan.

Yuvinish bo'lmalaridagi xavoning xolati bo'lma devorining shipiga yaqin joyida devor ichi bo'ylab joylashtirilgan ventilyatsiya shaxtasi orqali tabiiy xolda amalga oshiriladi.

2. Ob'ektda mexnatni muxofaza qilish bo'yicha elektr xavfsizligi.

Loyixalanayotgan ob'ektda sun'iy va tabiiy yoritish tizimi ko'zda tutilgan. Tabiiy yoritish derazalar orqali bo'lib, sun'iy yoritish esa elektr tarmog'i orqali xar xonaga o'rnatilgan yoritish lampalari orqali amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Sun'iy yoritish tarmoqlarining uskuna va jixozlari gidroizolyatsiya qilingan bo'lishi, o'tkazgichlar esa yopiq usulda o'tkazilishi lozim, ya'ni muxofaza qobiqlari bilan ta'minlangan bo'lishi shart. Bu muxofaza qobig'i elektr tizimining o'zgaruvchan kuchlanishlaridan uchqunlar chiqishi bilan paydo bo'ladigan yong'in xavfini yo'qotadi.

Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalariga asosan ikki saqlovchi qurilma o'rtasidagi elektr tizimlaridagi yoki oxirgi saqlovchi qurilma bilan xar

qanday o'tkazgich orasidagi muxofaza qobig'i qarshiligi 0,5 OM dan kam bo'lmasligi talab qilinadi.

Xavfli zonalarda bu qarshilik miqdori 20 – 30 ; dan ortiq bo'lishi kerak. Yuvinish bo'lmalarida namga chidamli zich yopiq xolda va zanglamaydigan materialdan tayyorlangan yoritish lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3.Ob'ektda mexnatni muxofaza qilish bo'yicha yong'in xavfsizligi.

Ob'ektni loyixalash va qurishda, unda bajariladigan ishlarning mohiyatidan kelib chiqadigan talablardan tashqari, unga texnik mustaxkamlik, sanitariya – gigiena va iqtisodiy talablardan tashqari, unga yong'in xavfi va yong'inga qarshi tura olish talablari xam qo'yiladi.

Bino qurilishida ishlatiladigan qurilish konstruksiyalarining yong'inga chidamliligi yoki yonishi ularning qanday materialdan tayyorlanganligiga bog'liqdir. Konstruksiyaning o'tga chidamlilik darajasining chegarasi QMQ II-2-80 ga asosan konstruksiyaning necha soat o'tga chidab turishi bilan belgilanadi. Loyixalanayotgan binoda yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun yo'lakning har 20 m. uzunlikka borishini ta'minlovchi shlanglar o'rnatilgan. (1)

Binoda yong'in chiqqan taqdirda tutunning biror xonada to'planib qolmasligi, ya'ni tutunni chiqarib yuborish uchun tashqi tomonga ochiq xavo chiquvchi derazalar, zinapoya katagiga esa aloxida eshik o'rnatilgan bo'lib qavatlardagi tutunni boshqa qavatga o'tkazmasligini ta'minlaydi. Binoni individual isitish sistemasi orqali isitish va issiq suv bilan ta'minlanish ko'zda tutilgan. Suvni isitish va ishlab chiqarish, xo'jalik maishiy maqsadlar uchun suvni isitish moslamalari loyixalangan.

Binoda yong'in paydo bo'lgan taqdirda uni zudlik bilan o'chirish uchun PG - 100 markali «Samarqand» tipidagi o't o'chirish gidranti loyixalangan. Bu gidrant 100 m. radiusda yong'inni o'chirishga mo'ljallangan.

Loyixalanayotgan Urganch shaxri Shovot kanali bo'yida 200 o'rinli (bionik uslubda) restoran binosi markaziy qismida ovqatlanish zali bo'lib eni 24 m uning har 40 m. joyiga bitta PG - 100 markali «Samarqand» tipidagi o't o'chirish gidrantlariga ulanadigan yong'in o'chirish shlanglari (englari) yumshoq to'qima materialdan tayyorlangan bo'lib, diametri. 51 va 66 mm bo'ladi. Ularning uzunligi 10 va 20 m. Bino ichkarisida o'rnatilgan yong'inga qarshi gidrantlar oralig'i 10 yoki 20 metrli shlanglar yordamida yong'inni o'chirish uchun kuchli suv oqimi binoning eng baland va eng uzoq nuqtasini ikkala gidrant orqali suv purkash imkoniyatini beradigan qilib o'rnatiladi. Ichkarida o'rnatilgan yong'in o'chirish kranlari pol yuzasidan 1,35 m. balandlikda o'rnatiladi.(2)

4. Yong'inga qarshi to'siqlar.

Bino va inshootlarni ichki tuzilmalarini loyixalashda, ularning funktsional vazifalarini ta'minlash bilan bir qatorda, yong'inni ogoxlantirish va tarqalishini chegaralash bo'yicha loyixaviy tadbirlarni bajarish lozim bo'ladi.

Yong'inga qarshi to'siqlar yong'in sodir bo'lgan joylarda olovni binoning boshqa qismlariga tarqab ketmasligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ular umumiy va maxalliy to'siqlardan iborat bo'ladi. Umumiy to'siqlar olovni binoning xajmi bo'yicha tarqalishidan muxofaza qiladi. Bunday to'siqlarga yong'inga qarshi devorlar va yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan eshik va derazasiz devorlar, tomyopg'ich plitalar, ximoya xududlari, sektsiyalar va oraliqlar misol bo'ladi. To'siqlar joylashgan xududlar odatda tutundan ximoyalagich-xavo so'rg'ich moslamalar bilan jixozlangan bo'lishi lozim.

Ba'zi xollarda qizigan xavo yo'lini to'sish maqsadida suv pardasini oqizish yo'li bilan xam bino qismlaridagi xaroratni ko'tarilmasligini ta'minlash mumkin.

Maxalliy to'siqlarga esa bino ichidagi o'tda yonmaydigan devor va pardevorlar xamda binoning tomida joylashgan yong'inga qarshi parapet to'siqlar va shuningdek shamolatish qurilmalarida va xavo uzatgich moslamalarida

o'rnatiladigan shiber va to'sqichlar kiradi. Maxalliy to'siqlarning vazifasi yong'inni sirt bo'ylab chiziqli tarqalishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. (3)

X u l o s a

Loyixalanayotgan ob'ektda yong'inga qarshi kurash ishlari shu ob'ektning yong'inga xavfsizlik darajasiga qarab belgilanadi. Bog'ot tumani Qalajik qal'a xududida 60 o'rinli sanatoriya binosining yong'in xavfsizlik darajasiga ko'ra ob'ektda aloxida yong'inga qarshi kurash bo'limini tashkil qilishga zarurat yo'q. Lekin binoda yong'indan muxofaza qilish ishlarining asosiy yo'nalishi yong'in chiqib ketmasligini va yong'in chiqqan taqdirda xam kattalashib ketmasligini tahminlashga qaratilgan extiyot chora – tadbirlari qurilish shartdir.

Xozirgi vaqtda davlat yong'inga qarshi kurash nazoratini Ichki ishlar vazirligining yong'indan muxofaza qilish boshqarmasi amalga oshiradi.

Davlat yong'inga qarshi kurash nazorati organlari yong'in xavfsizligi qoidalarini, normalari va talablarini bajarmagan va shuningdek yong'inga qarshi kurashning birlamchi vositalari xamda kerakli asbob – anjomlarni noto'g'ri saqlagani va bu anjomlardan boshqa maqsadlarda foydalanganligi uchun korxona, tashkilotning raxbar xodimlariga va boshqa javobgar shaxslarga jarima solish xuquqiga ega.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi, ya'ni Bog'ot tumani Qalajik qal'a xududida 60 o'rinli sanatoriya binosida mexnatni muxofaza qilish bo'yicha texnik yechimlar loyixa xujjatlarida to'g'ri xal qilingan. Loyixada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mexnatni muxofaza qilishning quyidagi qoidalariga rioya qilish:

- 1.Mexnatni muxofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mexnat sharoitini yaratishga;
- 2.Ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;

3.Xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

4.Ishlab – chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng ehtibor qaratilgan.(4)

Bino va inshootlarni yong'in va portlash havfi

Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bo'lajak yong'in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta'sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashyolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqorish jarayonida ishlatiladigan yoki saqlanadigan xomashyolarning yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Qurilish ashyolarining yonuvchanligi

Bino va inshootlarning yong'in havfsizligi odatda ularning o'tga chidamlilik darajasi bilan ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ularda ishlatilgan qurilma va ashyolarning yonuvchanlik xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'ladi. qurilish ashyolarining yuqori harorat ta'siridan alangalanib yoki cho'g'lanib yonish natijasida parchalanishi ularni yonuvchanligini bildiradi.

QMQ 2.01.02-85 raqamli yong'in havfsizligi me'yorida qurilish ashyolari yonuvchanlik xususiyatlari bo'yicha uchta guruhga bo'lingan: **yonmaydigan, qiyin yonadigan** va **yonuvchi** guruhlar.

Bino qurilmalarining o'tga chidamliligi.

Bino va undagi qurilmalarning o'tga chidamliligi deb, yong'in sodir bo'lganda ularning yuqori harorat ta'siriga bardosh beraolishi va yuk ko'tarish xususiyatlarini uzoqroq muddatga saqlab qolish qobiliyatiga aytiladi. Bino va inshootlarning yong'in havfsizligi ko'pchilik hollarda ulardagi qurilma-larni olovda yonmasligi va o'tga chidamliligi bilan ta'minlanadi. Inshoot qurilmalarining o'tga chidamliligi, ularning eng asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi, bu ko'rsatkich maxsus me'yorlardan biri QMQ 2.01.02-85 bilan me'yorlanadi.

Qurilmalarni o'tga chidamlilik chegarasi tajriba usuli bilan yoki analitik xisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu usullarning asosiy shart va qoidalari Xalqaro mezonlashtirish tashkilotining tavsiyanomalarida (ISO) va mezon SEV 1000-78 «Yong'inga qarshi qurilishni loyihalashtirish me'yorlari» da aks ettirilgan.

Tajriba usuliga binoan qurilmalarni haqiqiy o'lchamda namunasi tayyorlanib, maxsus pechlarda oldin isitiladi, keyin ularni ishlatilish joyidagi me'yoriy yuklar yig'indisiga mos keladigan holatda yuklantiriladi va sinov boshlanishidan to uning sirtida o'tga chidamlilik chegarasini anglatuvchi belgilaridan birortasi paydo bo'lganiga qadar vaqt oralig'i aniqlanadi.

Kurilmalarning o'tga chidamliligini oshirish.

Harorati 1200°S gacha ko'tarilib uzluksiz davom etadigan yong'in sharoitida bino qurilmalarining (xususan ko'ndalang holatdagilari) ustuvor turishi amri maholdir. SHu boisdan, ularni olov ta'siridan himoyalash, ya'ni yong'in paytida imkon darajasida bardosh berish vaqtini uzaytirish maqsadida, birqator qo'shimcha tadbirlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Qurilishda qo'llaniladigan ashyolarni yonuvchanligi bo'yicha uchta toifaga bo'linishini nazarda tutsak, olov ta'sirida yonmaydigan ashyolar toifasiga beton, g'isht va tabiiy toshlar va metallar kiradi. Metal qurilmalar o'tda yonmasa hamki, tosh va beton ashyolarga ko'ra yuqori harorat ta'siriga chidamsiz bo'ladi. Masalan, [3.] 25G2S markali past legirlangan po'latdan tayyorlangan A-III sinfiga taalluqli armaturaning xavfli harorati 570°S dan oshmaydi, alyumin qorishmasidan tayyorlangan yuk ko'taruvchi qurilmalarning xavfli harorati esa 250°S ni tashkil etadi. Demak, eng mustahkam hisoblangan metal qurilmalar ham olovning zarbiga bardosh beraolmas ekan. SHu boisdan ularni olovdan muhofaza qilish zarurati tug'iladi.

Yong'inga qarshi to'siqlar.

Bino va inshootlarni ichki tuzilmalarini loyihalashda, ularning funksional vazifalarini ta'minlash bilan bir qatorda, yong'inni ogohlantirish va tarqalishini chegaralash bo'yicha loyihaviy tadbirlarni bajarish lozim bo'ladi.

Yong'inga qarshi to'siqlar yong'in sodir bo'lgan joylarda olovni binoning boshqa qismlariga tarqab ketmasligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Ular umumiy va mahalliy to'siqlardan iborat bo'ladi. Umumiy to'siqlar olovni binoning hajmi bo'yicha tarqalishidan muhofaza qiladi. Bunday to'siqlarga yong'inga qarshi devorlar va yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan eshik va derazasiz devorlar, tomyopg'ich plitalar, himoya hududlari, seksiyalar va oraliqlar misol bo'ladi. To'siqlar joylashgan hududlar odatda tutundan himoyalagich-havo so'rg'ich moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

Ba'zi hollarda qizigan havo yo'lini to'sish maqsadida suv pardasini oqizish yo'li bilan ham bino qismlaridagi haroratni ko'tarilmasligini ta'minlash mumkin.

Mahalliy to'siqlarga esa bino ichidagi o'tda yonmaydigan devor va pardevorlar hamda binoning tomida joylashgan yong'inga qarshi paraped to'siqlar va shuningdek shamolatish qurilmalarida va havo uzatgich moslamalarida o'rnatiladigan shiber va to'sqichlar kiradi. Mahalliy to'siqlarning vazifasi yong'inni sirt bo'ylab chiziqli tarqalishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Yong'inga qarshi to'siqlar o'zlarining o'tga chidamlilik xususiyatlariga binoan uch turga bo'linadi va ular quyidagi jadvalda aks etdirilgan

Xulosa

Xulosa.

Inson faoliyatining qadimiy va nafis soxalaridan biri arxitekturadir. Arxitektura bizga ma'lum «qurilishning yuqori bosqichi », oliysi demakdir. Arxitektura – inson faoliyati, maishati, umuman hayoti uchun fazoviy muxit yaratish san'atidir.

Bu erda fazoviy - er satxi ustidagi binolar nazarda tutiladi. Bunday fazoviy muxit yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. U chegaralovchi, belgilovchi (devor, to'siq, panjara, dov-daraxt, tosh kabi) tuzilishlar yordamida tashkil etiladi. [6]

Loyihalanayotgan 200 o'rinli restoran binosida aralash tipdagi konstruktiv echimlar qo'llanilgan bo'lib u tashqi ko'rinishi jihatidan chiroyli va mustahkam bo'lishi fazoviy muxitni shakllantirishda o'ziga xis san'at asarini shakllantirgan.

Arxitekturaning bir - biri bilan chambarchas bog'langan uch qismi mavjud. Bular: konstruksiyasi, funksiyasi, va estetikasidir. Arxitektura asariga quyidagi talablar qo'yiladi.

- Birinchidan arxitektura asari inson foydalanishiga qulay bo'lsin, qanday maqsadda qurilgan bo'lsa shu maqsadni to'la ado etsin:
- Ikkinchidan – asar o'z-o'zini ko'tara oladigan, tashqi ta'sirlarga chidash beraoladigan bo'lsin:
- Uchinchidan asar ko'rinishi ta'sirli, insonni to'liqlantiradigan bo'lishi kerak.

Loyihalanayotgan 200 o'rinli restoran binosi yuqorida qayd qilingan talablar bo'lib bu talablar, echimlar, arxitekturaviy, kompozitsion, tipologik va bir qancha bosqichlar asosida loyihalangan.

Loyixalangan bino o'zining chiroyli ko'rinishi bilan Shovot kanali bo'yiga juda chiroyli ko'rinish bahshida etgan. Bino bionic tipda yuqoridan qush ko'rinishini eslatadi. Bu qush Shovot kanalidan suv ichishga kelayotganday tasvirni o'zida mujassam etgan. Binoni yaqin masofadan kuzatganda uning kirish qismi juda maftunkor kishini o'ziga tortuvchi kompozitsion yechimga ega qilib loyixalangan.

Loyihalangan 200 o'rinli restoran binosida simmetrik kompozitsiyaning qo'llanilishi unga chiroylilik va badiiylik baxsh etgan. Unda ishlatilgan qurilish materiallarining bir- biri bilan uyg'unligini ta'minlagan. Unda zamonaviy qurilish materiallaridan ham oqilona foydalanilgan. Uning bosh reja ko'rinishida unga boruvchi alohida yo'l va avtomobillar turish joylari undan tashqari ikkita favvora xam loyixalangan. Binoning atrofi ko'kalamzor qilinib manzarali daraxtlat chiroyli gullar ekilishi loyixada ko'zda tutilgan.

Olingan 4,5 yillik taxsilimiz samarasi shuni ko'rsatadiki biz chizgan, yaratgan loyiha qurilish me'yorlari asosida yaratilgan bo'lib qurilishga tadbqiq qilinishida o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ubaydullaev X.M., Inogamova M.M., “Turarjoy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari”, Toshkent., 2009 yil.(darslik).
2. Ubaydullaev X.M., Maxmudov V.M., “Metodika arxitekturnogo proektirovaniya”, Tashkent., 2010 g.(uchebnyy posobiya)
3. Ubaydullaev X.M., xidoyatov T.A., Abduraxmanov Y.I., Korobovseq G.I., Mansurov YA.M., “Arxitekturaviy loyihalash” Toshkent, 2012 y., (o‘quv qo‘llanma).
4. Qadirova S.A. “Jamoat binolarini loyihalash” Toshkent, 2015 y., (o‘quv qo‘llanma).
5. T. Qodirova «O‘zbekistonning istiqlol yillari me’morchiligi » Toshkent 2004 y.
6. Толипов К., Иногамов Б.И., Сетмаматов М.Б. «Архитектура композиция назарияси » Тошкент 2002 й.
7. Убайдуллаев Х.М., Абдурахманов Й.И., Сетмаматов М.Б. Жамоат биолари типологияси 2-кисм. Тошкент 2000 й.
8. Убайдуллаев Х.М., Абдурахманов Й.И., Хидоятлов Т.А. Жамоат биолари типологияси 1-кисм. Тошкент 2000 й.
6. И.Е.Рожин, А.И.Урбах, Архитектурное проектирование общественных зданий и сооружений М.Стройиздат 1985.
8. Специфика проектирования предприятий общественных питания в условиях Узбекистана. Сборник ТашПИ Выпуск 11, Т.1984.
9. Предприятий общественных питания и перспективы её развития. Сборник трудов института УзНИИПИ градостроительства, 1981.
10. ҚМҚ 2.08.02 -96 “Жамоат биолари ва иншоотлар” Тошкент -1996 й.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.G'. Yormatov. P. M. Rashidov "Mexnatni muxofaza qilishning umumiy masalalari" Toshkent 1987 y.
- 2.G'. Yormatov. R. M. Maxmudov "Mexnatni muxofaza qilish" 1 - qism Toshkent 1994 y.
3. G'. Yormatov. R. M. Maxmudov "Mexnatni muxofaza qilish" 2 - qism Toshkent 1995 y.
- 4.G'. Yormatov SH. Nasreddinova. O'. U. Isamuxamedov "Sanoat sanitariyasi" Toshkent 1994 y.
- 5.G'. Yormatov. Yo. Isamuxamedov "Mexnatni muxofaza qilish" Toshkent O'zbekiston 2002 y.
- 6.O'zbekiston Respublikasi mexnatni muxofaza qilish to'g'risidagi konunlari. Toshkent 1990 yil.
- 7.X. Raximova., A.Ahzamov., T.Tursunov. «Mexnatni muxofaza qilish»,Toshkent, Uzbekiston-2003.
- 8.X.Azimov «Qurilishda mexnat xavfsizligi» 1-kism.T.1997.
9. X.Azimov «Qurilishda mexnat xavfsizligi» 2-kism.T.1997.
- 10.QMQ-3.01.02-00. Qurilishda xavfsizlik texnikasi.T.2000.